

ISSN 2181-1342



Actual problems of social and humanitarian sciences  
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

## Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

6/S-son (4-jild)

**2024**

# **SCIENCEPROBLEMS.UZ**

**ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ  
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

***№ S/6 (4) - 2024***

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-  
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

**ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES**

**ТОШКЕНТ-2024**

## **БОШ МУҲАРРИР:**

Исанова Феруза Тулқиновна

## **ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:**

### **07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:**

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Укташ Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Аброр – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

Турсунов Равшан Нормуратович – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллӣ Университети;

Холикулов Ахмаджон Боймаҳамматовиҷ – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллӣ Университети;

Габриэльян Софья Ивановна – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Миллӣ Университети.

Сайдов Сарвар Атабулло ўғли – катта илмий ҳодим, Имом Термизий халқаро илмий-тадқиқот маркази, илмий тадқиқотлар бўлими.

### **08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:**

Карлибаева Раја Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Насирходжаева Дилафруз Сабитхановна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Остонокулов Азамат Абдукаримович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент молия институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўқтамович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Хожаев Азизхон Саидалоҳоновиҷ – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Фарғона политехника институти

Холов Актам Ҳатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Ҳамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б, Тошкент молия институти;

Шакаров Кулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

### **09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:**

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яхшиликов Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Сайдова Камола Усканбаевна – фалсафа фанлари доктори, "Tashkent International University of Education" халқаро университети;

Хошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Ўроқова Ойсулув Жамолиддиновна – фалсафа фанлари доктори, доцент, Андижон давлат тибиёт институти, Ижтимоий-гуманитар фанлар кафедраси мудири;

Носирходжаева Гулнора Абдукаҳаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Турдиев Бехруз Собирович – фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Бухоро давлат университети.

### **10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:**

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шухрат Норқизилович – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳасанов Шавкат Аҳадович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Бахронова Дилрабо Келдиёрова – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Мирсанов Ғайбулло Қулмурадович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Салахутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Рахман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти хузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Саидов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти хузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

#### **12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАР:**

Ахмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуротовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Хуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфсизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти хузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Файбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти хузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Утемуратов Махмут Ажимуратович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳакимов Комил Бахтиярович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Юсупов Сардорбек Баходирович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Амирор Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судъялар олий кенгаши хузуридаги Судъялар олий мактаби;

Жўраев Шерзод Юлдашевич – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Бабаджанов Атабек Давронбекович – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Раҳматов Элёр Жумабоевич - юридик фанлар номзоди, Тошкент давлат юридик университети;

#### **13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:**

Хашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна – педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети хузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази;

Каюмова Насиба Ашуревна – педагогика фанлари доктори, профессор, Қарши давлат университети;

Тайланова Шохида Зайневна - педагогика фанлари доктори, доцент;

Жуманиёзова Мұхәйё Тожиевна – педагогика фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Ибрахимов Санжар Урунбаевич – педагогика фанлари доктори, Иқтисодиёт ва педагогика университети;

Жавлиева Шахноза Баходировна – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети;

Бобомуротова Латофат Элмуродовна - педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети.

#### **19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:**

Каримова Васила Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Хайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбаҳор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психологияси кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Шамшетова Анжим Карамаддиновна – психология фанлари доктори, доцент,

Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;  
Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарканд вилоят ИИБ Тиббиёт бўлими психологик хизмат бошлиғи.

#### 22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Латипова Нодира Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;  
Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

Содиқова Шоҳида Мархабоевна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси.

#### 23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР

Назаров Насриддин Атакулович –сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;  
Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич –сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

### ОАК Рўйхати

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхатига киритилган.

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари**” электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

**Муассис:** “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамияти

#### Таҳририят манзили:

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил:  
[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)

**Боғланиш учун телефонлар:**  
(99) 602-09-84 (telegram).

**12.00.00 – YURIDIK FANLAR**

*Умарханова Дилдора Шарипхановна*

ЕВРОПА МИНТАҚАСИДА ЖИНОЯТ ИШЛАРИ БҮЙИЧА ХАЛҚАРО ҲАМКОРЛИКНИНГ  
РИВОЖЛАНИШ ТЕНДЕНЦИЯЛАРИ ..... 9-14

*Yakubova Iroda Bahramovna*

MULKIY HUQUQLARNI JAMOAVIY ASOSDA BOSHQARUVCHI TASHKILOTLAR VA  
MUALLIFLAR O'RTASIDAGI FUQAROLIK-HUQUQIY MUNOSABARTLAR..... 15-26

*Собирова Нозимахон*

СИТУАЦИОННОЕ ПРЕДОТВРАЩЕНИЕ АКАДЕМИЧЕСКОЙ НЕДОБРОСОВЕСТНОСТИ: РОЛЬ  
ОБУЧЕНИЯ, МОТИВАЦИИ И ИННОВАЦИОННЫХ ПОДХОДОВ К ОЦЕНКЕ ..... 27-36

*Йўлдошев Азизжон Эргаш ўғли*

ЖАМИЯТ ВА ДАВЛАТ ИШЛАРИНИ БОШҚАРИШДА ИШТИРОК ЭТИШ  
ХУҚУҚИННИГ ҚИЁСИЙ ТАҲЛИЛИ ..... 37-45

*Турсунов Ойбек*

ЭТАПЫ СТАНОВЛЕНИЯ И РАЗВИТИЯ МЕЖДУНАРОДНОГО ВОДНОГО ПРАВА ..... 46-53

*Ismoilova Aziza Alisher qizi*

MEHNAT MUNOSABATLARIDA GENDER TENGLIKNI TA'MINLASHDA GENDER HUQUQIY  
EKSPERTIZA AHAMIYATI VA HUQUQIY MUAMMOLARI ..... 54-60

*Safarova Shaxlo Pulatovna*

YANGI O'ZBEKİSTONNING HOZIRGI RIVOJLANISH DAVRIO'ZGARİSHLARINING INSON  
HUQUQLARI TA'LIMINI AMALGA OSHIRISH VA RIVOJIGA TA'SIRI ..... 61-67

*Akbaralieva Mukhayo Karamatullo kizi*

CRIMINAL LIABILITY FOR KIDNAPPING IN FOREIGN COUNTRIES ..... 68-71

*Valijonov Daler Dilshodovich*

PROBLEMS OF COMBATING CORRUPTION: INTERNATIONAL EXPERIENCE  
AND PRACTICE OF EU MEMBERS ..... 72-76

*Asadov Eldorjon Nizomiddin o'g'li*

DAVLAT FUNKSIYALARI VA DAVLAT MOLIYASI O'ZARO NISBATINING HUQUQIY  
MASALALARI ..... 77-92

*To'xtayev O'ktamjon Zarifjon o'g'li*

VAKILLIK INSTITUTINING FUQAROLIK-HUQUQIY TAHLILI ..... 93-103

*Хайдарова Хилола Анваровна*

НАСЛЕДОВАНИЕ ПРАВ НА ОБЪЕКТЫ ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНОЙ СОБСТВЕННОСТИ ... 104-109

*Рахмонова Моҳичехра Нодирбек кизи*

СУВЕRENİTET İ YURİSDİKİYİA Vİ KİBERPİROSTRANSTVE ..... 110-118

*Худайбердиева Шоҳиста Ақмал қизи*

ЎЗБЕKİSTON VA TURKİYA RESPUBLİKA LARI ЎRTASIDAGI ҲАМКОRLIK VA

ҲАМКОРЛИКНИНГ ҲУҚУҚИЙ АСОСЛАРИНИ ТАДҚИҚ ЭТИШДАГИ ИЛМИЙ-НАЗАРИЙ ЁНДАШУВЛАР .....	119-129
<i>Aljonov Ayubjon Qobiljon o'g'li</i> RAQAMLI IQTISODIY HAMKORLIKNI XALQARO TARTIBGA SOLISH .....	130-136
<i>Fayzulloyev Shohijaxon Jobirovich</i> XALQARO SAVDODA NIZOLARNI HAL QILISH KONSEPSIYASINING RIVOJLANISHI: TARIXIY VA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR.....	137-141
<i>Fayzullaeva Shakhllo Jumaniyaz kizi</i> ISSUES OF ONLINE DISPUTE RESOLUTION UNDER THE WTO .....	142-147
<i>Raimov Elbek Bahodirovich</i> OLIY TA'LIM TASHKILOTINING YURIDIK SHAXS SIFATIDAGI HUQUQIY MAQOMI.....	148-152
<i>Alieva Kamola Ravshanovna</i> OVERCOMING LEGAL BARRIERS TO ENHANCE WOMEN'S POLITICAL PARTICIPATION IN UZBEKISTAN .....	153-161
<i>Juraeva Asal</i> MECHANISM OF ENFORCING ICA AWARDS IN UZBEKISTAN .....	162-166
<i>Rakhmonov Otabek</i> THE ROLE OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE IN THE REORGANIZATION OF JOINT STOCK COMPANIES .....	167-171
<i>Айбек Якубов</i> ПРАВОВОЙ ПОРЯДОК РЕГУЛИРОВАНИЯ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ И МЕЖДУНАРОДНО-ЧАСТНЫХ ЭКОНОМИЧЕСКИХ ОТНОШЕНИЙ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН В РАМКАХ ВСТУПЛЕНИЯ ВО ВСЕМИРНУЮ ТОРГОВОЮ ОРГАНИЗАЦИЮ .....	172-178
<i>Zoilboyev Javlon Karimjon o'g'li</i> MA'MURIY SUD HUJJATLARINI IJROGA QARATISHNING HUQUQIY TARTIBI .....	179-184
<b>07.00.00 – TARIX FANLARI</b>	
<i>Elmuratov Ortiq Oltiboy o'g'li</i> TURONNING YUNON-MAKEDONLARGA QARAMLIK DAVRI ME'MORCHILIK AN'ANALARI.....	185-192
<i>Baxtiyarov Sirojbek Ilxombek o'g'li</i> URBANIZATSIYA TUSHUNCHASI, TURLARI VA UNING TAHLILI .....	193-199
<b>08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI</b>	
<i>Imamov Javokhir</i> LEVERAGING INTERNATIONAL BEST PRACTICES FOR ESTABLISHING MODERN TECHNOLOGICAL INDUSTRIAL ZONES IN UZBEKISTAN .....	200-203
<b>09.00.00 – FALSAFA FANLARI</b>	
<i>Shodmonova Shaxnoza Dadaxujayevna</i> “TAHDID” FENOMENI VA UNING SIYOSIY JIHATLARI .....	204-209
<b>10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI</b>	

<i>Bawetdinov Mukhammeddin</i>	
UZAQBAY PIRJANOVNING PEYZAJ LIRIKASI .....	210-215
<i>Соҳибова Зарнигор</i>	
ПЕЙЗАЖ ЛИРИКАСИДА ДАРАХТ ОБРАЗИ (ЗУЛФИЯ ИЖОДИ МИСОЛИДА) .....	216-219
<i>Jonridova Sanobar Sherali qizi</i>	
O'ZBEK TILSHUNOSLIGIDA IMPLIKATSION BIRLIKLER TADQIQI .....	220-224

<i>Sharipova Mokhidil</i>	
PHONETIC CHARACTERISTICS OF ONOMATOPOEIC WORDS IN ENGLISH LANGUAGE.....	225-231

### 13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI

<i>Umarov Abdurasul Abdurahimovich</i>	
PROFESSIONAL VA TEXNOLOGIK TA'LIM O'QITUVCHILARINI TAYYORLASHDA KOMPAS-3D AVTOMATLASHGAN LOYIHALASH TIZIMINI QO'LLASH .....	232-237

<i>Ro'ziyeva Nafosat Abdumumin qizi</i>	
YOSHLARNI OILAVIY HAYOTGA TAYYORLASHDA ABDULLA AVLONIYNING AXLOQIY QARASHLARI .....	238-245

<i>Qalandarova Maxliyo</i>	
MOLIYAVIY SAVODXONLIKKA O'RGATISHDA O'QUVCHILARINING O'QUVBILISH FAOLIYATINI FAOLLASHTIRISH .....	246-251

<i>Чинқулова Гулмехра Баҳроновна</i>	
ЎҚУВ МАШФУЛОТЛАРИНИ ТАШКИЛ ЭТИШ ВА БОШҚАРИШДА ЗАМОНАВИЙ ТЕХНОЛОГИЯЛАРНИНГ АҲАМИЯТИ .....	252-258

<i>Ibragimova Venera Azadovna</i>	
TIBBIY OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA KREDIT MODUL TIZIMI IMKONIYATLARI.....	259-264

<i>Turgunov Shuxratjon Nozimjon o'g'li</i>	
INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA HAQORATNING FONETIK VA MORFOLOGIK SATHLARIDA IFODALANISHI .....	265-269

**Received:** 10 August 2024

**Accepted:** 15 August 2024

**Published:** 25 August 2024

*Article / Original Paper*

## **POSSIBILITIES OF THE CREDIT MODULE SYSTEM IN MEDICAL INSTITUTIONS OF HIGHER EDUCATION**

**Ibragimova Venera Azadovna**

Independent researcher of Urganch State University

**Abstract.** The article talks about the credit-module system. Wide implementation of this new system in medical institutions of higher education, development based on advanced educational technologies, improvement of the quality of higher education, which is considered an environment for training of specialists, raising the process of training highly qualified doctors to a new level in terms of quality, giving students independent and the advantages of the credit-module system, which allows creative thinking, are discussed.

**Key words:** Credit module, ECTS, flexibility in education, creative thinking, modular teaching, pre-clinical modules, academic mobility, student-oriented education, training of qualified specialists.

## **TIBBIY OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA KREDIT MODUL TIZIMI IMKONIYATLARI**

**Ibragimova Venera Azadovna**

Urganch davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

**Annotatsiya.** Maqolada kredit-modul tizimi to'g'risida so'z boradi. Ushbu yangi tizimni tibbiy oliy ta'lismuassasalarida keng joriy qilish, ilg'or ta'lim texnologiyalari asosida rivojlantirish, mutaxassis kadrlarning shallanish muhiti hisoblangan oliy ta'lism sifatini yaxshilash, yuksak malakali shifokorlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, talabalarga mustaqil va kreativ fikrlash imkonini beruvchi kredit-modul tizimi afzallikkari to'g'risida fikr yurutiladi.

**Kalit so'zlar:** Kredit-modul, ECTS, ta'limda moslashuvchanlik, kreativ fikrlash, modulli o'qitish, klinik oldi modullar, akademik mobillik, talabaga yo'naltirilgan ta'lim, malakali mutaxassislar tayyorlash.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4SI6Y2024N34>

Ta'lismasalasi jahoning ko'plab mamlakatlarida muhim vazifalar qatoridan o'rindan olgan. Bir qancha mamlakatlarda global raqobat sharoitidagi yangi talablarga javob beruvchi, moslashuvchan ta'lism tizimini yaratishga qaratilgan islohotlar amalga oshirilmoqda. Bu jarayonda asosiy maqsad oliy ta'lismuassasalarini va o'quv dasturining moslashish imkoniyatlarini oshirishga qaratilgan bo'lib, buni amalga oshirish uchun akademik va tashkiliy tuzilmani tubdan yangilash, infrastruktura, ta'lism jarayonlari va texnologiyalarini yangilash, pedagogik imkoniyatlarni kengaytirish, o'qituvchilar malakasini oshirish va sifatini yaxshilash kabi tizimli ishlarni amalga oshirish rejalashtirilmoqda.

Jumladan mamlakatimizda ham oliy ta'lism tizimini tubdan isloh qilishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash, zamonaviy bilim va ko'nikmalarga ega bo'lgan, mustaqil va kreativ

fikrlaydigan, yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga chiqarish, oliy ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, ilg'or ta'lim metodikalari asosida takomillashtirish, mutaxassis kadrlarning shallanish muhiti hisoblangan oliy ta'lim muassasalari sifatini yaxshilash asosiy jarayonlardan biri hisoblanadi.

Ma'lumki ta'limni zamonaviy va sifatli tashkil qilish borasida davlatimiz rahbari tomonidan keng qamrovli islohotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktayabrdagi PF-5847-son farmoni bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiysi"da oliy ta'lim jarayonlariga raqamlı texnologiyalar va zamonaviy o'qitish usullarini joriy etish, yoshlarni ilmiy faoliyatga keng jalb etish, oliy ta'lim muassasalarida o'quv jarayoni bosqichma-bosqich kredit-modul tizimiga o'tkazish, xalqaro tajribalardan kelib chiqib, oliy ta'limning ilg'or standartlarini joriy etish, jumladan o'quv dasturlarida nazariy bilim olishga yo'naltirilgan ta'limdan amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga yo'naltirilgan ta'lim tizimiga bosqichma-bosqich o'tish, oliy ta'lim muassasalarining o'quv rejalarini kredit-modul tizimiga o'tkazish mexanizmlarini ishlab chiqish va ularni mazkur tizimga o'tkazish, o'quv rejalarida amaliy ko'nikmalarni oshirishga qaratilgan mutaxassislik fanlari bo'yicha amaliy mashg'ulotlar ulushini oshirish bo'yicha aniq vazifalar belgilab berilgan.[1]

Respublikamiz Oliy ta'lim muassasalarida kredit-modul tizimini joriy qilishdan ko'zda tutilgan asosiy maqsad jahon oliy ta'lim tizimiga, Boloniya jarayonlariga qo'shilish, dunyo reytingida yuqori o'rnlarda turuvchi oliy ta'lim muassasalari qatoriga kirishdir. Yurtimizdag'i oliy ta'lim muassasalarini ham zamonaviy milliy ta'lim tizimi va Balonya jarayoni kontekstida rivojlanib bormoqda. Shu nuqtai nazaridan milliy ta'limni xalqaro ta'lim makoniga integratsiyalashuvi asosida talabalar va o'qituvchilarining akademik harakatchanligini kengaytirish, Yevropa kredit transferini joriy etish kabi Boloniya jarayonining parametrlarini amalga oshirish va jamlash tizimi (ECTS -Yevropa kredit o'tkazish tizimi), kredit texnologiyasini joriy etish, kompetensiya yondashuvi talablari nuqtai nazaridan ta'lim dasturlarini modulli tizimga loyihalash, ish beruvchilar bilan yaqin hamkorlikka e'tibor qaratish va hokazolardir.

Kredit-modul tizimining asosiy tamoyillari ECTS kredit-modul tizimi muayyan tamoillar asosiga qurilgan bo'lib bular:

- Talabaga yo'naltirilgan ta'limni tashkil etish;
- Ta'limda shaffoflikka erishish;
- Ta'limda moslashuvchanlikni kuchaytirilishi;
- Talabalar mobilligini kuchaytirish; [2]

Talabaga yo'naltirilgan yondashuvning asosiy maqsadi shundaki, asosiy e'tibor talaba va uning bilim olish qobiliyatiga qaratiladi. Talabalarda mustaqil fikrlash, bilimlarini boshqa talabalar bilan ularshish, mustaqil qaror qabul qila olish qobiliyatlarini shakllantirishga yo'naltiriladi. Ta'lim dasturining mazmuni o'qitish natijalari va malakalari bilan belgilanadi. O'z navbatida, ular dasturning aniq predmeti yoki moduli, shuningdek, bitiruvchilarda fuqarolik va mehnat qobiliyatini shakllantirishning ijtimoiy vazifalaridan naza da tutgan holda shakllantiriladi. Bu jarayonda albatta o'qituvchining funksiyasi ham o'zgaradi. Talabaga yo'naltirilgan yondashuv orqali o'qituvchi bilimlarni tizimlashtirish, bilim berish va tarbiyada asosiy shaxs bo'lishni to'xtatadi va endi o'qituvchi tomonidan ma'lum kompetentsiyalarni egallash uchun hamrohlik rolini oladi. U o'z o'mnida maslahatchi, yordamchi vazifasini bajaradi.

Ta'limda shaffoflikka erishish bu ta'lim-o'rganish, o'qitish va baholash jarayonlarining shaffofligi asosida shakllantiriladi. Talabalar butun o'qish davomida qaysi fanlarni o'zlashtirishlari zarurligi, ulardan kutilayotgan natijalari, qanday usul va mezonlar asosida imtihon qilinishlari haqida oldindan to'liq va shaffof tarzda ma'lumot berilishi bilan harakterlanadi.

Ta'limda moslashuvchanlikni rivojlantirilishi kredit-modul tizimida OTMlar o'zlarining o'quv dasturlarini ishlab chiqishda individual tarzda zamon, mehnat bozori talablariga tezroq moslashish, ushbu ehtiyojlarga tezroq javob qaytarish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Talabalar akademik mobilligini rivojlantirish kredit-modul tizimida faoliyat yuritadigan oliy ta'lim muassasalarida ta'limni tashkil etish va bosqarish bo'yicha standart ta'moyillar asosida ishlanganligi, ta'lim jarayonlarining shaffoflikka asoslanganligi sababli talabalar bir oliy ta'lim muassasasida olgan kreditlari boshqa oliy ta'lim muassasasida tan olinishi imkoniyati kengayadi. Shu tufayli ECTS kredit-modul tizimiga o'tgan va uning tamoyillariga amal qilayotgan oliy ta'lim muassasalarining halqaro jozibadorligi toboro ortib borib, xorijiy oliy ta'lim muassasalari bilan hamkorlik qilish imkoniyatlari kengayib boradi.

### **Kredit-modul tizimining afzalliklari nimada?**

Modulli ta'lim dasturi - bu malaka va ilmiy daraja berish uchun zarur bo'lgan kompetensiyalarni o'zlashtirishga qaratilgan modullar to'plami va ketma-ketligi. Xalqaro ta'lim standartlari va Boloniya jarayonlari asosida, hamda pedagogik loyihalash sohasidagi mavjud ilmiy tadqiqotlarni inobatga olgan holda, modulli o'quv dasturlarini tashkil qilishda quyidagi yondashuvlar belgilanadi:

- kompetensiyaga asoslangan yondashuv
- talabaga yo'naltirilgan yondashuv
- dasturning modulli tuzilishi
- ta'lim oluvchilarining o'quv yuklamasining kredit hisobi
- talabalarning mustaqil ishlari ulushining ortishi.

Malaka talablari va kompetensiyalar ta'lim dasturlarini shakllantirish uchun asos bo'lishi kerak. Talabalarning kutilayotgan va o'lchanadigan aniq yutuqlari bu - talaba o'qishni tugatgandan so'ng nima qilishini belgilaydi va o'qitish natijalari va olingan kompetensiyalar o'rta sidagi bog'liqlikni ko'rsatadi. Ular oliy va oliy o'quv yurtidan keyingi ta'limning har bir bosqichining ta'lim dasturini tugatgandan so'ng olingan bilim, ko'nikma va malakalarning darajasi va hajmini tavsiflaydi. O'quv dasturlarini talabaning shaxsiga va o'qitishning aniq natijalariga, ya'ni talabalarga yo'naltirilgan ta'lim dasturlari deb ataladigan yo'nalishni ta'minlashi kerak.

Modulli o'qitish talabaning o'quv faoliyatini baholashda uning dinamikasini kuzatish va butun ta'lim olish davridagi ishining samaradorligini hisobga olgan holda baholash imkonini beradi.

Shunday qilib, kredit-modul ta'lim dasturlarini rejalshtirishda kompetensiyaga asoslangan yondashuv, tabiiyki, Boloniya jarayonlari parametrlariga mos keladigan talabalarga yo'naltirilgan yondashuvga olib keladi. Ushbu yondashuvning asosiy maqsadi shundan iboratki, ta'lim dasturlari talabalarga yo'naltirilgan bo'lishi, ularning ustuvorliklari va mehnat xarajatlarini hisobga olish, tinglovchiga ta'lim mazmunini tanlashda ishtirok etish imkoniyatini berish, ta'lim yo'lini belgilash imkoniyatini beradi.

Kredit-modul tizimi oliy ta'lim muassasalarining ko'p tomonlama faoliyatini- o'quv rejalarini va dasturlarini mehnat bozorida talab qilinadigan malakalari, ta'lim jarayonlari, talabalar bilimini baholash, o'qituvchilarning o'quv yuklamalarini aniqlash va hokazo. Bu tizim o'qituvchi va o'quvchi faoliyatini real baholash imkonini beradi, bilim olish erkinligini ta'minlaydi. Modulli o'qitishning bosqichlarga, darajalarga bo'linishi, metodlarni, o'qitish usullarini uyg'unlashtirishning samarali usullarini aniqlash, multimedia texnologiyalaridan foydalanish, o'qituvchining mahorati – bularning barchasi amaliyotda amalga oshirish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishi mumkin bo'lgan zamonaviy o'qitish texnologiyasidir.

Kredit-modul o'qitishning eng muhim tarkibiy qismlari modul dasturi, modul va o'quv elementidir. Modulli invariant dasturlarning markazida kasbiy ahamiyatga ega harakatlarni (ta'lim elementlari) ifodalovchi modullar mavjud. Modulli dasturning afzalligi- moslashuvchanlik, o'zgaruvchan sharoitlarda unga moslashish qobiliyati. Har bir modul uchun o'quv fanining dasturi, o'quv modullari to'plami tuzilgan talabalarning o'zlashtirishi uchun uzatish shakllarida, xususan, modulli o'qitish jarayonida sezilarli o'zgarishlarga olib keladi.

### **Tibbiy oliy ta'lim muassasalarida bu tizimni tadbiq etish nima uchun kerak?**

Ma'lumki, tibbiyot sohasini o'rgatuvchi fanlar talabidan kuchli bilim va o'tkir zehinni talab etadi. Tibbiy biologik modullarni o'qitish va o'rganish uchun oliy ta'lim muassasalarida kredit-modul tizimini tadbiq etish ta'lim samaradorligini sezilarli darajada oshiradi, talabalarda bilim, ko'nikma va malakalarni amaliyotda qo'llash uchun zamin yaratadi. Mamlakatdagi tibbiyot sohasini o'rgatuvchi oliy ta'lim muassasalarini jahon miqiyosdagi nufuzli tibbiy oliy ta'lim muassasalari bilan hamkorliklarni yo'lga qo'yishga zamin yaratadi. Ushbu tizimga o'tish orqali talabalar juda katta imtiyozlarga ega bo'ladilar.

Birinchidan, akademik mobillik orqali talabalar kreditlarini saqlagan holda, istalgan tibbiy oliy ta'lim muassasalarida klinik fanlarni va malakaviy amaliyotni hech bir qiyinchiliksiz talaba almashinuv dasturlari orqali o'tashlari mumkin bo'ladi. Bunda xorijiy yoki o'zimizdag'i istalgan oliy ta'lim muassasasi bo'lishining ahamiyati yo'q. Bu orqli talabalarda kreativ yondashuvni rivojlantirish, klinik fikrlash qobiliyatini kengaytirish, kasbiy faoliyatda muammoli vaziyatlarda individual qaror qabul olish kabi muhim elementlarni rivojlantirishda muhim o'rinni tutadi. Talabalar ta'lim dasturining bir qismini dunyoning eng yaxshi oliy ta'lim muassasalaridan birida ta'lim olish bilan bирgalikda ularda turistik faoliyatni rivojlantish, baynalmilallikni mustshkamlash uchun ajoyib imkoniyat bo'ladi.

Ikkinchidan, talabalarga o'qituvchini tanlash imkonini berish orqali ularni faollashtirish. Bu bilan o'qituvchi va talaba o'rtasida akademik muloqot ta'minlanadi, bu jarayonda talabaning o'qituvchini tanlashi ularning kasbiy faoliyatida o'z ustida ishlab vazifalariga bo'lgan mas'uliyatni yanada oshiradi.

Uchinchidan, talabalar xohishlaridan kelib chiqqan holda, fanlarni tanlash imkoniyatiga ega bo'ladi. Albatta, bu o'rinda tibbiy oliy ta'lim muassasalarida majburiy o'rganilishi lozim bo'lgan klinik oldi modular yani umumkasbiy fanlar ham bor, ammo talaba mustaqil tanlov fanlarini belgilay oladi va ular uchun bu juda yaxshi imkoniyatdir.

To'rtinchidan, o'quv jarayoniga oid dars jadvali, imtihonlar jadvallari, fan resurslari talabalik guvoxnomasi, talabaning reyting daftarchasi, o'zlashtirish ko'rsatkichlari, davomat hisobotlari, diplom va akademik ma'lumotnomalar bularning barchasi talabaning shaxsiy kabinetida mujassamligi ta'lim jarayonining ochiqligini, shaffofligini ta'minlaydi hamda o'z -

o'zidan ta'lif tizimidagi ortiqcha byurokratik to'siqlar yuzaga kelishini va korrupsion holatlarni oldini oladi.

### **Kredit-modul tizimi talabaga nima beradi?**

Kredit-modul o'qitish tizimi har bir talabaning o'ziga xos qobiliyati va qiziqishiga ega bo'lgan shaxs sifatida, mustaqil fikr yuritishiga yordam berish va har bir talabaga individuallik imkonini berishdan iborat. Assiy e'tibor o'ziga xos qobiliyat, intilish va ta'sir etuvchi tajribaga ega bo'lgan yagona talabalarga qaratilishi kerak va yana sifatli ta'lifni ta'minlash uchun o'qituvchi o'quv dasturini shaxsiylashtirishi va individuallashtirishi kerak. O'qituvchi individual ta'limga berilsa, u talabalar bilan shaxsiy suhbatlashish va ularga individual yordam berish uchun vaqt topadi. Individual ta'lif ko'plab taniqli va o'ziga ishonadigan xarakterlarni rivojlantirishga yordam berishi mumkin va zamonaviyroq usullarda talabalar o'z qiziqishlarini qondirish va qondirish davrlaridan zavqlanishga yordam beradi.

Hayotimizning deyarli barcha jahbalarining - ish, texnologiya, o'zaro bog'liqlik, atrof-muhitning tezlashib borayotgan o'zgarishlar sur'ati talabalarimizga yangi talablarni qo'yadi. Ular kelajakka tayyor bo'lishi, murakkab ko'p tarmoqli muammolarni hal qilish uchun yaxshi jihozlangan bo'lishi, global muammolarga yangi istiqbollarni keltira olishi va o'zlarini tanlagan sohada yetakchi mutaxassis bo'lishlari kerak.

Kredit-modul o'qitish tizimi moslashuvchan va ochiq o'quv dasturlari orqali talabalar bozorlarini kengaytiradi, bu esa talabalarning ko'proq harakatchanligini ta'minlaydi. Modulli dasturlar talabalarga kurslar va universitetlar o'rtasida akademik yutuqlar uchun kredit bilan o'tish imkonini beruvchi kredit transferlari bilan bog'liq turli fanlardan modullarni olish yoki kreditni saqlab qolgan holda kurslarni o'zgartirish imkoniyatini beradi, bu ayniqsa universitetda o'qishni boshlashda qaysi kursni o'tashni istayotgani haqida aniq tasavvurga ega bo'limgan talabalar uchun foydali bo'lishi mumkin. Ta'lif muassasalarini o'rtasidagi kredit o'tkazmalari talabalarga o'qishlari davomida milliy va xalqaro miyosida ko'chib o'tishga imkon beradi, bu esa ikki yoki uchta turli universitetlarda o'z bilim darajalarini kengaytirish imkonini beradi. Bu oliy ta'lif tizimining asosiy xususiyati bo'lib, talabalarga to'plangan kredit ballarini o'tkazish orqali institutlar o'rtasida osongina harakat qilish imkonini beradi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, tibbiy oliy ta'lif muassasalarida kredit-modul tizimini joriy etish o'quv jarayonini jadallashtiradi, talabalar o'quv faoliyati ijobiy motivatsiyasiga ta'sir etadi va o'qituvchilar ishini sezilarli darajada o'zgartiradi hamda O'zbekiston ta'lif tizimiga xalqaro hamkorlik uchun yo'l ochadi. Zero, mazkur tizimdan ko'zlangan asosiy maqsad tibbiy oliy ta'lif muassasalarida zamonaviy talablarga javob bera oladigan malakali shifokorlar tayyorlash tizimini sifatli ta'lif xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga mos yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash. Shuning uchun ham bo'lajak shifokor-mutaxassislarini kreativ yondashuv negizida kasbiy faoliyatga tayyorlashni takomillashtirish, ularga mos innovatsion metod va texnologiyalarni ishlab chiqarish, shuningdek, ilmiy-metodik ta'minotni tayyorlash, ushbu sohaning dolzarb yo'naliшlaridan hisoblanadi. Bunda ushbu sohada olib borilayotgan o'zgarishlarni e'tiborga olgan holda tayyorlangan bo'lajak shifokorlar barcha jahhalarda munosib hissa qo'sha oladigan mutaxassislar bo'lib yetishadi.

**Адабиётлар/Литература/References:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lif tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-son Farmoni 3-bob 1- §.
2. Usmonov B.Sh, Xabibullayev R.A. "Oliy o'quv yurtlarida o'quv jarayonini kredit-modul tizimida tashkil qilish" o'quv qo'llanma Toshkent 2020-yil.
3. Oripov F.S., Dexkanova N.T. THE ADVANTAGE OF A CREDIT-MODULAR SYSTEM OF TRAINING IN MEDICAL UNIVERSITIES <https://cyberleninka.ru/article/n/the> [elektron manba]
4. Gayan N. Gubaydullinaa, Anar B. Myrzagaliyeva, KarakatM.Nagymzhanova and Madina D. Aurenova "Modern Approaches to the Pedagogical Designing of Modular Educational Programs of Higher Professional Education in the Republic of Kazakhstan" INTERNATIONAL JOURNAL OF ENVIRONMENTAL & SCIENCE EDUCATION 2016, VOL. 11, NO. 9, 2863-2876
5. Dr Sarah French "The Benefits and Challenges of Modular Higher Education Curricula" Melbourne Centre for the Study of Higher Education October 2015

# **SCIENCEPROBLEMS.UZ**

## **ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

*Nº S/6 (4) – 2024*

### **АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

**ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES**

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг  
долзарб муаммолари**” электрон  
журнали 2020 йил 6 август куни 1368-  
сонли гувоҳнома билан давлат  
рўйхатига олинган.

**Муассис:** “SCIENCEPROBLEMS TEAM”  
маъсуллияти чекланган жамияти

**Таҳририят манзили:**

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой  
тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-  
уй. Электрон манзил:

[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)

**Боғланиш учун телефонлар:**

(99) 602-09-84 (telegram).